

**O'YINLAR O'QUVCHILARNI RIVOJLANTIRUVCHI DIDAKTIK JARAYON****Sultanova V.K****Habipov M.A**

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, “O'zbek tili,
tillar, ijtimoiy fanlar” kafedrası o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada didaktik o'yinlar o'quvchilar faolligini namoyon qiluvchi ta'limning bir shakli ekanligi, bu o'yinlar yordamida o'quvchilar ijtimoiy tajribani o'rganish va o'zlashtirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, xulq-atvor ko'nikmalari, ijtimoiy tajriba, bilish faoliyati, o'yin qoidalari.

O'yinlarning o'ziga xos jihatlaridan biri – barcha ishtirokchilarning o'yin qoidalari va shartlarida bo'ysunishi zarurligidadir. Bu o'quvchilarda o'ziga xos xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish imkonini beradi. Birinchi navbatda o'yin yordamida o'quvchilarda ongli, aql-idrokka asoslangan xulq-atvor ko'nikmalari tarkib topadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchi tafakkurini shakllantiruvchi o'ziga xos maktab hamdir. Chunki, tafakkurning barcha ko'rinishlari muayyan qiyinchiliklarga javob topish, atrof-muhit hodisalari bilan to'qnashishlarini bartaraf etish jarayonida hosil bo'ladi. Bunday murakkabliklar mavjud bo'lmagan vaziyatlarda o'quvchilarning harakatlari yengil kechadi, lekin ular bu jarayonda mantiqiy fikrlashga ehtiyoj sezmaydilar va mavjud tajribalarga tayangan holda harakat qiladilar. Kutilmagan, yangi kombinatsiyalar vujudga kelganda o'quvchilardan ham yangi kombinatsiyalar va munosabatlar talab qilinadi.



Bunday vaziyatda o'quvchilar o'z faoliyatlarini jadallik bilan qayta qurishlari lozim. Bu o'rinda ular tafakkur qiladilar va xulq-atvorning yangi ko'rinishlari bosqichiga kiradilar. Tajribaning o'ta murakkab shakllarini namoyon qilish natijasida o'quvchilar muayyan tanlov ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ular ko'plab imkoniyatlar orasida maqsadga muvofiq'ini tanlashga intiladilar.

Ko'pgina ta'sirlar natijasida o'quvchilarda tafakkur tarzi shakllanadi hamda ular orasidan muhimini dastlabki ta'sir yordamida tanlab oladilar. Xuddi mana shu o'quvchilarga o'yinga ma'lum qoidalarni kiritish va uning yordamida o'z harakatlarini chegaralash imkonini beradi. O'quvchilar oldiga muayyan maqsadga erishish uchun aniq vazifalar qo'yish orqali ularning imkoniyatlari va layoqatlarini yuqori nuqtaga ko'tarish mumkin. Bu o'quvchilarga o'z xulq-atvorlarini o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshirishi uchun qulay sharoit yaratadi va ularni shunga undaydi. Buning natijasida o'quvchilarning hatti-harakatlari yagona maqsadga yo'naltiriladi, ular o'z oldlariga qo'yilgan ma'lum vazifalarni ongli bajaradilar.

Boshqacha qilib aytganda, didaktik o'yinlar – aql-idrokka asoslangan, maqsadga tayangan holda shakllantirilgan, rejalashtirilgan, ijtimoiy-muvofiqlashtiruvchi, xulq-atvorning muayyan qoidalari va kuch-quvvat sarflashga asoslangan didaktik jarayondir. Bu xususiyati bilan didaktik o'yinlar insonning mehnatga sarflaydigan kuch-quvvatiga teng keladi. Chunki, inson mehnat faoliyatining belgilari o'yin faoliyati belgilariga mosdir. Qo'lga kiritiladigan natijalar esa bundan mustasno. Barcha tabiiy farqlarga qaramasdan mehnat va o'yin faoliyati orasidagi turli-tumanlikka asoslangan holda ularni o'zaro qarama-qarshi hodisalar sifatida baholash mumkin. O'yin va mehnatning pedagogik-psixologik tabiati o'zaro mos keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar o'quvchilar mehnatining tabiiy shakli hisoblanadi. Unga mansub bo'lgan faoliyat shakli o'quvchilarni kelgusi hayot va undagi ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iborotdir.

Didaktik o'yinlar o'quvchilar faolligini namoyon qiluvchi o'ziga xos bilish shaklidir. O'yinlar yordamida o'quvchilar ijtimoiy tajribani o'rganadilar va



o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham, o'yinlarni o'quvchilarni rivojlantiruvchi didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Bu jarayonda o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tasavvur, tushuncha va ko'nikmalar tarkib topadi. Shuning uchun ham, didaktik o'yinlar o'quvchilarda yuksak darajadagi hissiy kechinmalarni uyg'otadi va uni faollashtiradi.

O'yin vaziyatlarini shunday tashkil qilish kerakki, bu jarayon o'quvchilarning uzoq vaqt asosiy didaktik maqsaddan yiroqlashishi va chalg'ishiga imkon bermasin. Qiziqarli faoliyat, qiziqarli didaktik jarayonda o'quvchilar alohida qoniqish bilan uzoq vaqt shug'ullanadilar. O'quvchilarning jadal bilish faoliyatlari – darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, ularning diqqatlarini bir nuqtaga jamlashlariga ko'maklashadi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar shuni ko'rsatadiki, o'yin o'quvchilar hayotida muhim o'rin egallashi bilan bir qatorda, ularning tafakkurini rivojlantirishda ham alohida didaktik qimmatga ega. Bu esa, o'yinning ta'lim vositasi ekanligini didaktik jihatdan asoslash imkonini beradi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Амонашвили Ш. Размышления о гуманной педагогике. - М.: Дом Шалвы Амонашвили, 2001.-463 с.
2. Розиков О., Махмудов М, Адизов Б., Хамроев А. Она тили дидактикаси. Т.: Янги аср авлоди. 2005 й. 128-б.
3. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.фан.номз. диссер. Т.: 1993. 123-б.
4. Шмаков С. Игры в слова и со словами - М., изд. АСТ, 2000,-208 с.